O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi
“Yoshlar innovatsiya markazi” davlat unitar korxonasi

“Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yiliga bag’ishlangan “MINTAQADA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI TO’PLAMI

2021 yil 19 noyabr

oilaviy hayotga tayyorlash borasida ham xorijiy ilg‘or tajribalarni, zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarga asoslangan yangi modellari, texnologiya va metodlarini amaliyotga joriy etishni talab etmoqda.

Shu boisdan ham, aqli zaif bolalar uchun mo‘ljallangan maxsus ta’lim muassasalarida 9-sinf o‘quvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash borasida quyidagi innovatsion yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-pedagogik ishlarni amalga oshirish bugungi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda:

- o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlaridan samarali foydalanish, “Oilaviy hayotga tayyorlash” o‘quv mashg‘ulotlarida olingan bilimlarni yanada mustahkamlash va ta’lim-tarbiya uzluksizligini ta’minlash maqsadida oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarga asoslangan modelini ishlab chiqish;

-mazkur yo‘nalishga aloqador bo‘lgan (direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, psixolog, “Oilaviy hayotga tayyorlash” fani o‘qituvchilari, tarbiyachilar, tibbiyot xodimlari) ning malakasini oshirishning onlayn dasturini yaratish;

- ta’lim muassasalarida ota-onalar uchun o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsilashuvi va o‘smir yoshidagi psixologik muammolarida ko‘maklashadigan “Maslahat guruhi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- aqli zaif o‘smirlarni ularning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy-maishiy hayotga va oilaviy hayotga tayyorlash bilan bog‘liq tegishli malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan elektron o‘quv dasturlarini yaratish va amaliyotga joriy etish;

- mazkur jarayonga ota-onalarni va keng jamoatchilik e’tiborini jalb etish va ularning ham faol ishtirokiga erishish maqsadida jamoatchilik bilan aloqalarning interfaol va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan modelini ishlab chiqish ham shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha boshlang‘ich ishlab olib borilmoqda. Jumladan, oilaviy hayotga tayyorlash jarayonining darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarga asoslangan modelini ishlab chiqilib, tajriba-sinovdan o‘tkazilib, dastlabki natijalar tahlili olib borilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga zamonaviy talablar asosida ta’lim-tarbiya berishda innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj kuchaydi. Bu esa maxsus pedagogikada yangi innovatsion ishlanmalarga bo‘lgan yangi talablarni vujudga keltirib, maxsus ta’lim sohasi pedagoglari faoliyatining muhim mezonlaridan birini tashkil etmoqda.

BADIIY MATNLAR TAHLILINING O’QUVCHI MA’NAVIY TARBIYASIDAGI O’RNI

Aslanova Nozima Hakimovna
Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti
“Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi” o'qituvchisi

Ma’lumki, insonni boshqa jonzotlardan ustun sanalishiga asosiy sabab aql, ilm, tafakkur va nutqdir. Shuning uchun ham inson hayotning oliy xilqati sanaladi. Biroq inson o'z vazifalarini bekamu-ko‘st amalga oshirishi uchun ma’lum e’tiqodga ega bo‘lishi, o‘z umrining asl mohiyatni anglashi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa insonga yaxshi ta’lim va ma’naviy tarbiya olish zarur sanaladi. Xo’sh, ma’naviy tarbiya nima?

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo‘ladi. Xususan, boshlang’ich sinf o’qish darslarida o’quvchilar badiiy asar mutolaasi va matni ustida ishlash orqali o’zlariga hayotiy saboqlarni oladilar. Badiiy asar matni tahlili jarayonida ular asar qahramonlarining hatti harakatlarini tahlil qilib, ularning qilmishlarining to’g’ri yoki noto’g’riligini anglaydilar, shu bilan birga asardagi voqealardan ta’sirlanadilar. Buning uchun o’qish va sinfdan tashqari o’qish darslarini interfaol,

qiziqarli, sifatli va munozaralarga boy tarzda tashkil etish talab etiladi. Inson tarbiyasida ma’naviy tarbiya juda muhim. Ayniqsa, hozirgi shiddatli davrda insonning ma’naviy tarbiyasi juda ko‘p narsani belgilaydi. Ma’naviy tarbiyaning asosida qalb tozaligi yotadi. Shuning uchun ham yosh avlodga ma’naviy tarbiya zarur. Inson qaysi jamiyatda yashashidan, qaysi kasb bilan shug’ullanishidan qat’i nazar, u o’z insoniy burchi sifatida oilasini moddiy jihatdan to’kis etib ta’minlashi uchun dunyoviy ishlar bilan shug‘ullanishga majbur. Chunki, insonning moddiy ehtiyojlari doimiy ravishda o’sib boradi. Ota-bobolarimiz bolalarini halol-pokiza turmush kechirishlari uchun ularga yoshlikdan kasb va hunar sirlarini o’rgatish bilan birga ularga odob va tarbiya berishgan. Chunki insonning iymon va ma’naviyati mukammal bo‘lsa, u nopok yo’lga yurmaydi. Shu bilan birga topilgan mablag’ va molu dunyosi halol bo‘ladi. Birovning haqqiga xiyonat qilmaydi.

O‘quvchi badiiy asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa badiiy asardan ta’sirlanishga yordam berib, uning tafakkurini peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma’noni chuqurroq anglash va o‘rganishga yordam beradi. O’qish faoliyatida o‘qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonining quyidagi masalalarini hal qilishi muhimdir. Bular asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishdan boshlanadi. Sinfda o’quvchilarning ruhiy holati, sinf o’quvchilari orasidagi holat va vaziyatlardan kelib chiqqan holatda asar ustida ishlashning mazmuni belgilanadi. Keyingi vazifa asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olish vazifasidir. Bu vazifa o’qituvchining dars jarayoniga metodik tayyorgarligi, dars jarayonini qanday metodlar asosida tashkil etishi va boshqarishiga bog’liq bo’ladi. Bunda o’qituvchi badiiy asar ustida ishlashda har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi muhim o’rin tutadi.

Keyingi masala o‘quvchilar egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar doirasini belgilab olish vazifasidir. Bunda badiiy asar ustida ishlash jarayonida o’quvchilarning tafakkuri, o’z fikrini nutqida bayon qila olishi, badiiy asar ustida ishlashning qaysi bosqichida bo’lmasin o’zini namoyon eta oishiga e’tibor qaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ma’naviy tarbiyani bola asosan mutolaa orqali egallaydi. Xususan, shaxsining tez rivojlanadigan davri – o‘quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat yordami bilan maxsus ta’sir etish muhimdir. Aks holda xulq me’yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta’sirga beriluvchan bo‘lib qolishi mumkin. “Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi”, deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o’z ma’ruzalarida. Shu sababli boshlang’ich sinf o’qish darslari o’quvchilarga samarali ma’naviy tarbiya berishning eng optimal shakli bo’lib xizmat qilishi va xalq ta’limi tizimining boshlang’ich davridan boshlab bu ishlar to’laqonli amalga oshirilishi lozim.

TARBIYA FANINING TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Berdibekova Feruza Abdumannob qizi
Andijon davlat universiteti
Umumiy pedagogika kafedrasi o’qituvchisi

Yangi o‘quv yilidan boshlab, maktablarda «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma'naviyat asoslari» hamda «Dunyo dinlari tarixi» birlashtirilgan holda yaxlit «Tarbiya» fani darslik sifatida yaratildi. Davlatning shu haqidagi qarorida yangi fandan «Milliy g‘oya va huquq» mutaxassisligiga ega o‘qituvchilardan tashqari «Boshlang‘ich ta'lim», «Tarix» va «Dinshunoslik» mutaxassisligi vakillari ham dars berishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu masala qator maktablarda o‘qituvchilar orasida tushunmovchilikka sabab bo‘lmoqda.

MUNDARIJA

1-sektsiya. TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR, INNOVATSIYALAR		
1	Abdijamilova Charos Sherzod qizi - Qarshi davlat universiteti	3
	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING VAZIYATLI YANGILIKLAR KIRITISHGA MUNOSABATINI EKSPERIMENTAL O‘RGANISH	
2	Abdijamilova Charos Sherzod qizi – Qarshi davlat universiteti	4
	TA’LIM JARAYONIDA VAZIYATLI MASALALARNING O‘RNI	
3	Abrorxonova K.A., Alibayev D.Sh. - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	4
	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	
4	Abdisodiqova Marjina Normurod qizi - Qarshi davlat universiteti	5
	ABULQOSIM FIRDAVSIYNING “SHOHNOMA” ASARIDA AQLIY TAFAKKUR MASALALARI	
5	Abdisodiqova Marjina Normurod qizi - Qarshi davlat universiteti	7
	ABULQOSIM FIRDAVSIYNING “SHOHNOMA” ASARIDA FALSAFIY VA MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLAR TAHLILI	
6	Alibekova Umida Inomjon qizi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali	10
	OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA SHART-SHAROITLAR	
7	Arslanova Madinaxon Mansurovna - Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti	11
	IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	
8	Aslanova Nozima Hakimovna - Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti	12
	BADIIY MATNLAR TAHLILINING O‘QUVCHI MA’NAVIY TARBIYASIDAGI O‘RNI	
9	Berdibekova Feruza Abdumannob qizi - Andijon davlat universiteti	13
	TARBIYA FANINING TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI	
10	Boynazarov Ravshanbek Rashidovich - Surxondaryo viloyat ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarga ixtisoslashtirilgan internat-	14

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi
“Yoshlar innovatsiya markazi” davlat unitar korxonasi

“Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yiliga bag’ishlangan
“MINTAQADA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani
DASTURI

2021 yil 19 noyabr

Anjuman ishtirokchilarini ro‘yxatga olish 13.30-14.00

Anjumanning boshlanishi – 14.00

Anjumanning ochilishi:

Tabrik so’zi:

1. **F. Qosimov** - Farg’ona viloyati hokimi o’rinbosari
2. **S. Davlatov** – “Yoshlar innovatsiya markazi” davlat unitar korxonasi direktori

Ma’ruzachi FISH, ish joyi	Ma’ruza mavzusi	Vaqti
Yunusov Ziyodbek Alisherovich Farg’ona viloyati hududiy innovatsion rivojlanish boshqarmasi boshlig’i, texnika fanlari doktori	Farg’ona viloyatida innovatsiyalarni rivojlantirishda amalga oshirilgan ishlar	14.20-14.30
Maxmudova Sitora Nasriddinovna Buxoro muhandislik-texnologiya instituti doktoranti	3D texnologiya asosida kiyim konstruksiyasini modellashtirishning innovatsion yo`nalishlari	14.30-14.40
Maxkamova Munisaxon Majidovna Toshkent tibbiyot akademiyasi, Kardiologiya yo‘nalishi 2-kurs magistri	Koronavirus bilan kasallangan bemorlarda miokard infarkti klinik kechishining o‘ziga xosligini o‘rganish	14.40-14.50
Musayeva Nargiza Baxtiyorovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi katta o’qituvchisi	Интерактивное занятие «Информация с заранее придуманными ошибками»	14.50-15.00
Zaynutdinova Dilafruz Latibovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi assistenti	Homiladorlarda trombotsitlar patologiyasining tarqalish darajasi va dolzarbligi	14.50-15.00
Aslanova Nozima Hakimovna Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti “Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi” o'qituvchisi	Badiiy matnlar tahlilining o’quvchi ma’naviy tarbiyasidagi o’rni	15.10-15.20
Qulmatov G`anijon Otaxon o`g`li Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Davolash fakulteti 3-bosqich talabasi	Metabolik sindromning asosiy diagnostic mezonlari	15.20-15.30
Ma’ruzalar bo’yicha savol-javoblar, takliflar. Anjumanning yopilishi.		15.30-16.00

Aslanova Nozima Hakimovna

"YOSHLAR INNOVATSIYA MARKAZI" DUK TOMONIDAN O'TKAZILGAN
"MINTAQADA INNOVASION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR"
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANIDA

Badiiy matnlar tahlilining o'quvchi ma'naviy tarbiyasidagi o'rni

nomli ma'ruzasi bilan ishtirok etganligi uchun

SERTIFIKAT

BILAN TAQDIRLANADI

YOSHLAR INNOVATSIYA MARKAZI
DIREKTORI

S.DAVLATOV